Annotatsiya. Ushbu maqolada Angren konidan olingan kaolin rudalarini boyitishning samarali usullarini ilmiy asosda o'rganish natijalari keltirilgan. Tadqiqot doirasida kaolin rudalarini gravitatsion va flotatsion usullar yordamida boyitish imkoniyatlari tahlil qilindi. Gravitatsion boyitish jarayoni konsentratsion stolda amalga oshirilib, zarrachalarning zichligi va gidrodinamik xossalriga asoslangan holda ajratish samaradorligi baholandi. Flotatsion boyitish tajribalarida esa reagent rejimining o'zgarishi, zarracha o'lchami va shlamlarning ta'siri o'rganildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, kaolin rudasining mayda dispersli tarkibi flotatsiya jarayonining samaradorligini cheklaydi, natijada glinezomning ajralish darajasi nisbatan past bo'lib qoladi. Konsentratsion stolda boyitish esa ayniqsa mayda sinflar uchun yuqori samaradorlikni namoyon etdi. Tadqiqot natijalari asosida kaolin rudalarini qayta ishlashda optimal texnologik yondashuv sifatida gravitatsion boyitish usulini qo'llash maqsadga muvofiq ekanligi asoslab berildi.

Kalit so'zlar: kaolin, boyitish, gravitatsion usul, flotatsiya, konsentratsion stol, glinezom, zarracha yirikligi.

Abstract. This article presents the results of a scientific study on effective methods for the beneficiation of kaolin ores from the Angren deposit. Within the scope of the research, the possibilities of enriching kaolin ores using gravity and flotation methods were analyzed. The gravity beneficiation process was carried out on a concentration table, and the separation efficiency was evaluated based on particle density and hydrodynamic properties. In flotation experiments, the effects of reagent regimes, particle size, and slimes were investigated. The obtained results showed that the fine-dispersed composition of kaolin ore limits the efficiency of the flotation process, resulting in a relatively low recovery of alumina. In contrast, beneficiation on a concentration table demonstrated high efficiency, especially for fine fractions. Based on the research findings, the application of gravity beneficiation is substantiated as an optimal technological approach for processing kaolin ores.

Keywords: kaolin, beneficiation, gravity method, flotation, concentration table, alumina, particle size.



Аннотация. В данной статье представлены результаты научного исследования эффективных методов обогащения каолиновых руд Ангренского месторождения. В рамках исследования проанализированы возможности обогащения каолиновых руд гравитационными и флотационными методами. Процесс гравитационного обогащения осуществлялся на концентрационном столе, при этом эффективность разделения оценивалась на основе плотности частиц и их гидродинамических свойств. В экспериментах по флотации изучалось влияние режима реагентов, крупности частиц и содержания шламов. Полученные результаты показали, что тонкодисперсный состав каолиновой руды ограничивает эффективность процесса флотации, вследствие чего степень извлечения глинозёма остается относительно низкой. В то же время обогащение на концентрационном столе продемонстрировало высокую эффективность, особенно для мелких классов. На основе результатов исследования обосновано, что применение гравитационного метода является оптимальным технологическим подходом при переработке каолиновых руд.

Ключевые слова: каолин, обогащение, гравитационный метод, флотация, концентрационный стол, глинозём, крупность частиц.

KIRISH

Sanoatning turli tarmoqlarida alyuminiy oksidi (glinozyom) muhim xomashyo hisoblanib, uni olishda alyuminiy tarkibli rudalarni samarali qayta ishlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi [12]. Kaolin rudalari esa glinozyom olish uchun istiqbolli xomashyo manbalaridan biri bo'lib, ularning tarkibida alyuminiy minerallari bilan bir qatorda kvarts, temir birikmalari va boshqa qo'shimcha komponentlar ham mavjud. Mazkur aralashmalarni ajratib olish uchun samarali boyitish texnologiyalarini ishlab chiqish ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda kaolin rudalarini boyitishda gravitatsion va flotatsion usullar keng qo'llanilmoqda. Gravitatsion boyitish zarrachalarning zichligi va gidrodinamik xossaligidagi farqqa asoslangan bo'lib, ayniqsa yirik va o'rta yiriklikdagi fraksiyalarni ajratishda samarali hisoblanadi. Flotatsion usul esa mineral zarrachalarning sirt xossalriga asoslanib, ularning selektiv ajralishini ta'minlaydi [1]. Biroq mayda dispersli zarrachalarning mavjudligi flotatsiya jarayonining samaradorligini pasaytirishi mumkin, bu esa texnologik jarayonni chuqur o'rganishni talab etadi (1-rasm).



1-rasm. Angren konidan olingan kaolin namunalarining umumiy ko'rinishi

Angren koni kaolin rudalari granulometrik va mineralogik tarkibi jihatidan murakkab bo'lib, unda kaolinit minerali asosan mayda fraksiyada uchraydi. Shu sababli bunday xomashyoni boyitishda qo'llaniladigan usullarni tanlash va ularning samaradorligini baholash alohida ilmiy tadqiqotlarni talab qiladi. Ayniqsa, gravitatsion va flotatsion boyitish usullarining qiyosiy tahlili asosida optimal texnologik yechimlarni aniqlash muhim hisoblanadi [17].

Mazkur ishning maqsadi Angren koni kaolin rudasini boyitish jarayonini o'rganish, xususan, konsentratsion stolda gravitatsion boyitish va flotatsion usullarning samaradorligini baholash hamda glinozyom olish nuqtayi nazaridan maqbul texnologik yondashuvni aniqlashdan iborat [6].



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kaolin rudalarini boyitish va ulardan glinozyom ajratib olish masalalari ko'plab olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Xususan, A.A. Abdurahmonov va X.T. Tursunov o'z tadqiqotlarida foydali qazilmalarni boyitish jarayonining nazariy asoslarini yoritib, gravitatsion usullar zarrachalarning zichligi va o'lchamiga bog'liq holda samarali ajralishni ta'minlashini ta'kidlaydi. O.S. Axmedov va B.R. Karimov esa konchilik va rudalarni qayta ishlash texnologiyalarini tahlil qilib, murakkab tarkibli rudalarni boyitishda bir nechta usullarni uyg'un qo'llash zarurligini asoslab bergan.

Flotatsiya jarayonining nazariy va amaliy jihatlarini S.M. Bulatovic tomonidan batafsil o'rganilgan bo'lib, u reagentlar tizimi va ularning sirt faol xususiyatlari flotatsiya samaradorligiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. D.W. Fuerstenau, G.J. Jameson va R.H. Yoon o'z ilmiy ishlarida flotatsiya jarayonining rivojlanish bosqichlarini tahlil qilib, mayda dispersli zarrachalarning flotatsion faolligi past ekanligini qayd etgan. S.R. Rao ham o'z tadqiqotlarida mineral zarrachalarning sirt kimyosi flotatsiya jarayonining selektivligiga bevosita ta'sir qilishini asoslab bergan.

Gravitatsion boyitish usullarining rivojlanishi va qo'llanishi L.A. Vaisberg va V.A. Lapshin tomonidan o'rganilib, konsentratsion stol kabi qurilmalarning samaradorligi ayniqsa mayda va o'rta fraksiyalar uchun yuqori ekanligi ko'rsatib berilgan. B.N. Laskorin, V.D. Kuznetsov va N.N. Smirnov esa foydali qazilmalarni boyitish texnologiyalarini umumlashtirib, gravitatsion va flotatsion usullarni kompleks qo'llash samaradorligini ta'kidlagan.

Kaolin va boshqa gil minerallarini o'rganishda W.A. Deer, R.A. Howie va J. Zussman muhim ilmiy natijalarga erishgan bo'lib, ular kaolinning mineralogik xususiyatlari va uning mayda dispersli shaklda uchrashini asoslab bergan. H.H. Murray esa kaolinlarning sanoat ahamiyati va ularni qayta ishlash texnologiyalarini chuqur tahlil qilgan. W. Ryan va C. Radford tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa oq gil (whiteware clays) xossalari va ularni boyitish usullari yoritilgan.

Mineral xomashyolarni qayta ishlash texnologiyalarini rivojlantirishda A. Gupta va D.S. Yan hamda B.A. Wills va J. Finch muhim hissa qo'shgan bo'lib, ular boyitish jarayonlarini loyihalash va optimallashtirish masalalarini keng yoritgan. A.M. Gaudin va E.J. Pryor tomonidan ishlab chiqilgan nazariy asoslar esa zamonaviy boyitish texnologiyalarining shakllanishida muhim o'rin tutadi.

So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda S.A. Saidaxmedov, U.M. Ro'ziyev va boshqa mahalliy olimlar tomonidan alyuminiy tarkibli xomashyolardan glinozyom ajratib olish texnologiyalarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Ularning ishlarida mexanik faollashtirish, reagent rejimlarini optimallashtirish hamda kompleks boyitish usullarini qo'llash orqali jarayon samaradorligini oshirish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kaolin rudalarini boyitishda xomashyoning granulometrik va mineralogik xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, mayda dispersli rudalar uchun gravitatsion boyitish usullarining samaradorligi yuqori bo'lib, flotatsiya usuli ko'proq qo'shimcha bosqich sifatida qo'llanilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishlarida obyekt sifatida Angren konidan olingan kaolin rudasi tanlab olindi. Namunalarning dastlabki tayyorlash bosqichida ularning granulometrik tarkibi tartibga keltirildi hamda boyitish jarayoniga mos fraksiyalar ajratib olindi [9]. Konsentratsion stolda samarali ajratishni ta'minlash maqsadida materialning yirikligi 2 mm dan kichik holatga keltirildi.

Gravitatsion boyitish tajribalari Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining "Qattiq foydali qazilmalarni boyitish" ilmiy-tadqiqot laboratoriyasida SKL-0,2 ruzumli laboratoriya konsentratsion stolida olib borildi. Har bir yiriklik sinfi uchun 500 g massadagi namuna olinib, tajribalar takroriy sharoitda amalga oshirildi. Boyitish jarayoni oldindan ishlab chiqilgan texnologik sxema asosida bajarildi [3].


Konsentratsion stolning ish rejimi quyidagi parametrlar bilan tavsiflanadi: tebranish chastotasi 130 yurish/min, tebranish amplitudasi 7 mm, dekaning ko'ndalang qiyaligi 4–5°, material yirikligi esa -0,5 mm [15]. Jarayon davomida zarrachalarning zichligi va gidrodinamik xossalari asoslangan holda ajralish sodir bo'ldi, bunda yengil fraksiya va og'ir fraksiya alohida yig'ib olindi [8].

Olingan mahsulotlar massasi, chiqishi, glinozyom (Al_2O_3) miqdori va uning ajralish darajasi bo'yicha baholandi [2]. Kimyoviy tarkibni aniqlash maqsadida namunalar skanerlovchi elektron mikroskop yordamida energiya-dispersiya spektroskopiyasi usulida tahlil qilindi. Ushbu usul zarrachalarning elementar tarkibi va ularning boyitish jarayonida taqsimlanishini aniqlash imkonini berdi [18].

Bundan tashqari, kaolin rudalarini flotatsion boyitish imkoniyatlarini baholash uchun qo'shimcha tajribalar o'tkazildi. Tajribalar davomida dastlabki material sharli tegirmonda -0,074 mm sinfgacha maydalanib, pulpada qattiq va suyuq fazalar nisbati optimal qiymatlarda saqlandi [11]. Flotatsiya jarayonida yig'uvchi reagent sifatida



olein kislotasi hamda so'apstok aralashmasi qo'llanildi, jarayon davomiyligi 10 minutni tashkil etdi. Reagent sarfi va boshqa texnologik parametrlar o'zgartirilib, optimal sharoitlarni aniqlashga harakat qilindi. Tajribalarni amalga oshirishda 2-rasmdagi texnologik sxema asosida bajarildi (2-rasm).



2-rasm. Kaolin rudasini konsentratsion stolda boyitish sxemasi¹

Tadqiqot natijalari asosida gravitatsion va flotatsion boyitish usullarining samaradorligi solishtirilib, kaolin rudalarini qayta ishlash uchun maqbul texnologik yondashuvlar baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Konsentratsion stolda kaolin rudalarini boyitish jarayonida olingan eksperimental natijalarni baholashda dastlab texnologik sxemaning ishlash prinsipi muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlarda qo'llanilgan boyitish jarayonining umumiy ketma-ketligi va mahsulotlar oqimining taqsimlanishi 2-rasmda keltirilgan. 1-rasmda ko'rsatilgan sxemaga muvofiq, dastlab yanchilgan va klassifikatsiyadan o'tkazilgan ruda konsentratsion stolga beriladi. Jarayon davomida zarrachalar zichligi va gidrodinamik xossalari ko'ra ajralib, yengil va og'ir fraksiyalarga bo'linadi. Yengil fraksiya asosan kaolin minerallaridan tashkil topgan bo'lib, suv oqimi ta'sirida stol yuzasidan yuvilib chiqadi, og'ir fraksiya esa kvars va temir saqllovchi minerallar hisobiga stol yuzasida ushlanib qoladi [5].

Mazkur sxema asosida olib borilgan tajribalar natijalari keyingi bosqichda miqdoriy va sifat ko'rsatkichlar orqali baholanib, ular 1-jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. Konsentratsion stolda kaolin rudasini boyitish natijalari²


Mahsulotlar nomi	Og'irligi, gr.	Chiqish, %	Glinazyom miqdori, %	Glinazyomni ajratib olish, %
Yengil fraksiya	384	38,4	26,5	58,2
Og'ir fraksiya	616	61,6	11,8	41,8
Ruda	1000,0	100,0	17,5	100,0

*Tebranish chastotasi 130 marta/min; tebranish amplitudasi 7 mm; dekaning ko'ndalang qiyaligi 4–5°; material yirikligi –0,5 mm.

Kaolin rudasi namunalarining elementar tarkibini aniqlash maqsadida skanerlovchi elektron mikroskopning EDS detektorini yordamida tahlil o'tkazildi. EDS spektrogramma natijalari hamda boyitish jarayonida olingan mahsulotlarning turli yiriklik sinflari bo'yicha elementar taqsimlanishi 3-rasmda keltirilgan (3-rasm).

1 Muallif ishlanmasi

2 Muallif ishlanmasi



3-rasm. Boyitish natijasida olingan yengil fraksiyaning EDS spektrogramma natijalari³

Tadqiqot natijalariga ko'ra, konsentratsiya jarayonida og'ir fraksiyaga asosan yirik kvarts donalari hamda temir saqlovchi minerallar o'tishi aniqlangan, mayda dispersli kvarts zarrachalarining ma'lum qismi esa glinozyom bilan birga yengil fraksiyaga o'tadi [14].

Konsentratsion stolda kaolin rudasini boyitish natijalari shuni ko'rsatdiki, mayda yiriklik sinflari uchun ajralish samaradorligi yuqori bo'ladi, bunda yirik sinf uchun glinozyomning ajralish darajasi 28,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, mayda sinflarda bu ko'rsatkich 58 % gacha yetadi, konsentrat tarkibidagi glinozyom miqdori esa 26,5 % ni tashkil etadi.

Mayda zarrachalar yoki shlamlar (10 mkm dan kichik) mineral yoki rudaning tabiiy tarkibiy qismi bo'lishi mumkin, shuningdek, ularni rudani foydali komponentlarni ajratib olish uchun zarur o'lchamgacha maydalash jarayonida sun'iy ravishda hosil bo'lishi ham kuzatiladi. Ko'plab hollarda texnologik yoki iqtisodiy sabablarga ko'ra shlamlar hosil bo'lishining oldini olish amalda imkonsizdir [7].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayrim materiallar juda mayda o'lchamgacha maydalanganda ko'pik flotatsiyasi jarayonida suzmaydi, holbuki, xuddi shu sharoitlarda yirikroq zarracha holatida ular muvaffaqiyatli flotatsiyalanadi [13]. Mayda zarrachalarning flotatsion faolligining pasayishi ularning fizik-kimyoviy xossalari yirik zarrachalarnikidan sezilarli darajada farq qilishi bilan izohlanadi.

Birinchiidan, mayda zarrachalarning massasi va impulsi kichik bo'lgani sababli ular ko'pik fazasiga asosan suyuqlik bilan birga olib chiqilish yoki flotatsiyalanayotgan zarrachalar orasida mexanik ushlanib qolish orqali o'tadi. Ikkinchiidan, ularning yuqori solishtirma sirt maydoni kollektor reagentlarining ortiqcha sarflanishiga olib keladi [4]. Uchinchiidan, mayda zarrachalarning sirt va elektroximiyaviy xossalari odatda shu moddaning yirik zarrachalaridan farq qiladi. Yuqori sirt energiyasi tufayli mayda zarrachalardan kationlarning eritmaga o'tishi yoki yuvilib chiqishi kuchayadi, bu esa flotatsiyalanmaydigan minerallarning nojo'ya faollashuviga olib kelib, jarayon selektivligining pasayishiga sabab bo'ladi [16].

Laboratoriya sharoitida flotatsion boyitish bo'yicha tadqiqotlarda odatda 100 g dan 2–3 kg gacha bo'lgan namuna massalari qo'llaniladi, mazkur ishda esa tajribalar 1 kg namuna asosida olib borildi. Har bir tajribada boshlang'ich material tarkibidagi glinozyom miqdorining barqarorligini ta'minlash uchun namunadagi eng yirik zarracha diametri bilan namuna massasi o'rtasidagi nisbat probani tanlash qoidalariga muvofiq saqlab qolindi.

Nometall rudalar uchun 1 kg massadagi namuna holatida material yirikligi 1 mm dan oshmasligi talab etiladi. Tadqiqot obyekti bo'lgan kaolin rudasi oson maydalanish xususiyatiga ega bo'lib, sharli tegirmonda maydalash jarayonida tezda shlamlanadi. Shlamlarning hosil bo'lishi flotatsiya jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ayniqsa ruda tarkibida kremnezem miqdori yuqori bo'lgan holatlarda. Shu sababli material kamida 50 % miqdorda -0,074 mm yiriklik sinfigacha maydalanadi.

Tajriba ishlari davomida tarkibida temir tuzlari bo'lmagan suvdan foydalaniladi, chunki bunday tuzlar suv o'tkazuvchi metall quvurlarning oksidlanishi natijasida paydo bo'lishi mumkin. Shu sababli tajribalar oldidan suvning tarkibi tekshiriladi va "zangli" suv chiqarib tashlanadi. Agar yil fasllariga qarab suv tarkibida o'zgarishlar kuzatilsa, bu omillar albatta inobatga olinadi.

3 Muallif ishlanmasi



Agar laboratoriyaga kelayotgan suv tarkibida kalsiy, magniy, xlor va boshqa qo'shimcha aralashmalar miqdori yuqori ekani aniqlansa, unda zarur tarkibdagi sun'iy suv tayyorlanadi, ya'ni tegishli tuzlar ma'lum miqdorda qo'shiladi. Shu bilan birga, imkon qadar tajribalarni tabiiy suvda olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi [10].

Flotatsiya tajribalari uchun boshlang'ich material sharli tegirmonlarda suvli muhitda maydalanadi.

Maydalash muhiti sifatida diametri 10–12 mm bo'lgan po'lat sharlar qo'llanildi, bunda maydalovchi muhit hajmi tegirmon umumiy hajmining 45–50 % ini tashkil etdi. Pulpaning suyultirish darajasi (Q:S) maydalanuvchi material xususiyatiga qarab 1:0,5 (donador materiallar uchun) dan 1:0,8 (shlam miqdori nisbatan yuqori bo'lgan materiallar uchun, mazkur holatda bo'lgani kabi) oralig'ida tanlandi.

Angren konidan olingan kaolin rudasini flotatsion usulda boyitishni o'rganishda bir bosqichli texnologik sxema qo'llanildi. Jarayonning asosiy rejim parametrlari quyidagicha belgilandi: yig'uvchi va ko'pik hosil qiluvchi reagent sifatida so'apstok sarfi 20–55 g/t, flotatsiya davomiyligi 10 minut, material tarkibida -0,074 mm sinf ulushi kamida 50 % darajada saqlandi.


Shuningdek, yig'uvchi reagent sifatida olein kislotasi hamda olein kislotasi va so'apstokning 1:1 nisbatdagi aralashmasi qo'llanildi. Flotatsion boyitish natijalari 2-jadvalda keltirilgan (2-jadval).

2-jadval. Kaolin rudasini flotatsion boyitish natijalari⁴

Mahsulot nomi	Og'irligi, gr.	Chiqishi, %	Glinazyom miqdori, %	Glinazyomni ajratib olish, %
So'apstok – 55 g/t, flotatsiya vaqti 10 min, –0,074 mm sinf ulushi 60 %				
Boyitma 1	341,0	34,1	32,2	62,8
Chiqindi	659,0	65,9	9,9	37,2
Dast. ruda	1000,0	100,00	17,5	100,00

Flotatsiya usulida olib borilgan tajribalar natijalari shuni ko'rsatdiki, glinozyomning konsentratga ajralish darajasi dastlabki sharoitlarda 47,8 % ni tashkil etadi. Keyingi tajribalarda flotatsiya jarayonining reagent rejimi o'zgartirilib, yig'uvchi va ko'pik hosil qiluvchi moddalarning sarfi oshirilgan, natijada glinozyomning ajralish darajasi biroz ortib, o'rtacha 62,8 % ga yetgan.

Kaolin rudasi namunalarining elementar tarkibini aniqlash maqsadida skanerlovchi elektron mikroskopning EDS detektor yordamida qo'shimcha tahlillar o'tkazildi. Flotatsion boyitish jarayonida olingan mahsulotlarning EDS spektrogramma natijalari hamda ularning yiriklik sinflari bo'yicha elementar taqsimlanishi 4-rasmda keltirilgan (4-rasm).



4-rasm. Flotatsiya jarayonida olingan ko'pik mahsulotining EDS spektrogramma natijalari⁵

4 Muallif ishlanmasi

5 Muallif ishlanmasi



XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Angren konidan olingan kaolin rudalarini boyitish jarayonining asosiy qonuniyatlari va texnologik xususiyatlari aniqlandi. Konsentratsion stolda gravitatsion boyitish jarayoni zarrachalarning zichligi va yirikligiga bog'liq holda samarali kechishi, ayniqsa mayda dispersli fraksiyalar uchun yuqori ajralish ko'rsatkichlarini ta'minlashi isbotlandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, glinozyomning ajralish darajasi mayda sinflarda 58 % gacha yetishi, konsentrat tarkibida esa 26,5 % gacha glinozyom mavjudligi aniqlandi.

Flotatsion boyitish jarayonida esa zarracha o'lchamining keskin kichrayishi va shlamlarning yuqori miqdori jarayon samaradorligini pasaytirishi kuzatildi. Reagent rejimini optimallashtirish orqali glinozyomning ajralish darajasini ma'lum darajada oshirish mumkin bo'lsa-da, umumiy samaradorlik gravitatsion usulga nisbatan pastroq ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, juda mayda zarrachalarning flotatsion faolligi past bo'lib, bu holat selektivlikning kamayishiga olib keladi.

Shu asosda, Angren kaolin rudalarini qayta ishlashda gravitatsion boyitish usulini asosiy texnologik bosqich sifatida qo'llash maqsadga muvofiq deb topildi. Flotatsiya usulini esa asosan yirik donador materiallar uchun yoki qo'shimcha boyitish bosqichi sifatida qo'llash tavsiya etiladi. Tadqiqot natijalari kaolin rudalaridan glinozyom ajratib olish texnologiyasini takomillashtirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmonov, A. A., & Tursunov, X. T. (2010). Foydali qazilmalarni boyitish asoslari. Toshkent: Fan.
2. Axmedov, O. S., & Karimov, B. R. (2018). Konchilik va rudalarni qayta ishlash texnologiyasi. Toshkent: O'qituvchi.
3. Abdusamievich, S. A., Mamarasulovich, R. U., & Azamatugli, K. O. (2025). DEVELOPMENT OF TECHNOLOGY FOR OBTAINING ALUMINA FROM LOCAL RAW MATERIALS. Sanoatda raqamli texnologiyalar/Цифровые технологии в промышленности, 3(2), 105-111.
4. Bulatovic, S. M. (2007). Handbook of flotation reagents. Elsevier.
5. Ruziev U. M., Boymurodov N. A. MEXANIK FAOLLASHTIRISHNING GLINOZYOM AJRATIB OLISHGA TA'SIRI. – 2025.
6. Deer, W. A., Howie, R. A., & Zussman, J. (1992). An introduction to the rock-forming minerals. Longman.
7. Fuerstenau, D. W., Jameson, G. J., & Yoon, R. H. (2007). Froth flotation: A century of innovation. Society for Mining, Metallurgy, and Exploration (SME).
8. Gaudin, A. M. (1939). Principles of mineral dressing. McGraw-Hill.
9. Gupta, A., & Yan, D. S. (2006). Mineral processing design and operation. Elsevier.
10. Murray, H. H. (2007). Applied clay mineralogy: Occurrences, processing and application of kaolins, bentonites, palygorskite-sepiolite, and common clays. Elsevier.
11. O'G'Li, T. S. S., Mamarasulovich, R. Z. U. B., & O'G'Li, E. U. X. (2024). KALSIY TARKIBLI QO 'SHIMCHALAR TARKIBIDAGI ALYUMOGETIT VA BOKSIDAN GLINOZEMNI AJRATIB OLISH. Строительство и образование, 3, 203-210.
12. Pryor, E. J. (1965). Mineral processing. Elsevier.
13. Rao, S. R. (2004). Surface chemistry of froth flotation. Springer.
14. Ryan, W., & Radford, C. (1987). Whiteware clays: Their processing, properties and uses. Pergamon Press.
15. Vaisberg, L. A., & Lapshin, V. A. (2002). Gravitational methods of mineral processing. Mining Institute Press.
16. Grinev, V. G. (1986). Flotation methods of ore beneficiation. Nedra.
17. Laskorin, B. N., Kuznetsov, V. D., & Smirnov, N. N. (1975). Beneficiation of mineral resources. Nedra.
18. Wills, B. A., & Finch, J. (2016). Wills' mineral processing technology (8th ed.). Butterworth-Heinemann.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100